

## O’RTA OSIYODA MILLIY-HUDUDIY CHEGARALANISH MASALALARI VA USHBU MAVZUNI O’QITISHDA AHAMIYAT QARATADIGAN TA’LIMIY- TARBIYAVIY JIHATLAR

**Muinova Mexribon**

**Annotasiya:** *Sovet mustabit tuzumining yana bir o’ziga xos —kashfiyoti<sup>1</sup>l umuman mavjud bo’lmagan holatda milliy-hududiy chegaralanishning o’tkazilishi bo’ldi. Bu tadbir bolsheviklar hokimiyati tomonidan aytish mumkin bo’lsa bir necha o’n yilliklarni oldindan ko’rib amalga oshirilgan edi. Maqolada mazkur masala va ushbu mavzuni o’quvchi yoshlarga yetkazishda ahamiyat qaratiladigan jihatlar aks etgan*

**Kalit so’zlar:** *Milliy-hududiy chegaralanish, bolsheviklar, demarkatsiya, anklav, tarixiy munosabatlarning darz ketishi.*

Chor istibdodining qulashi uning mustamlakasi ostida yashab kelayotgan xalqlar uchun bir umid chirog’i bo’ldi. Lekin uning o’rniga kelgan bolsheviklar va ular joriy etgan yangi tuzum avvalgi tuzumdan barcha sohalarda, jumladan, mustamlakachilikda ham oshib ketdi. Sovetlarning mustamlakachilik siyosati tizimli-tashkiliy jihatdan yangi o’ziga xos bir sifat bosqichiga ko’tarildi. Buning bir misoli O’rta Osiyo hududida o’kazilgan milliy-hududiy chegaralanish hisoblanadi.

1917-yilda sovetlar hokimiyatni qo’lga kiritgandan keyin O’rta Osiyoni qo’ldan chiqarmaslik bir tomondan, ikkinchi tomondan bo’lsa qanday bo’lmasin ushbu mintaqada sovet tuzumini o’rnatish harakatini boshlab yubordi. Buning natijasida oldingi tuzumdan meros bo’lib kelayotgan O’rta Osiyodagi uchta ma’muriy hududiy davlatchilik –yarim vassal Buxoro amirligi va Xiva xonligi hamda Rossiyaning tarkibiy qismiga aylantirilgan Turkiston general-gubernatorligi o’rnida 220 qisqa vaqt ichida inqilobi yo’llar bilan (huddi Rossiyaning o’zidagi senariy kabi) yana 3 ta davlatlar tashkil etildi. —1918–1924-yillarda mavjud bo’lgan Turkiston ASSR, BXR, XXSRning tub xalqlari asrlar davomida turmush tarzi va an’analari jihatidan bir-birlariga juda yaqin bo’lishgan. Turkistondagi turli davlatlarning har birida o’zbeklar, qozoqlar, qirg’izlar, turkmanlar, qoraqalpoqlar, tojiklar azaldan yonma-yon yashagan. Bu tarixan tarkib topgan mushtarak hodisa edi. Turkiston mintaqasining xalqlari shu tuproqni, Turonzaminni qadimdan o’zlarining yagona Vatani deb bilganlar O’zbekiston tarixi : umumiy o’rta ta’lim maktablarining 10-sinf o’quvchilari uchun darslik / S.Tilabayev va boshqalar. — Birinchi nashr. — Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2022. - 192 b. 118-b.

11 Жумаханов Ш., Тошпўлатов А. Марказий Осиёда амалга оширилган миллий-худудий чегараланишнинг тарихий-географик таҳлили // Ўтмишга назар. 2020, № 8, 40-бет.

1920-yillarda boshlab mahalliy darajada milliy chegaralanish masalasi keskin va tanqidiy asoslarda muhokama qilinib kelingan bo’lishiga qaramasdan, 1924 yilning 15 iyulida Markaziy Osiyo byurosi milliy chegaralanish loyihasini tayyorlash va 1924 yil oktabr oyida uni o’tkazish zarur, degan qat’iy xulosaga keldi. Shu maqsadda, maxsus markaziy-hududiy



komissiya tuzilib, joylarda tashviqot-targ'ibot ishlari ham kuchaytirildi. Mazkur davrda hududlar bo'yicha aholining milliy tarkibi aniqlandi. Hududiy komissiya, milliy-hududiy qayta qurish bo'yicha boshqa komissiyalar bilan bir qatorda, etnik nomlar va guruhlar hududning mahalliy nomlanishi, mahalliy aholi o'rtasidagi iqtisodiy hayot, til va madaniyat, va nihoyat, milliy konsentratsiyaning umumiy tendensiyasini ham hisobga olish kerak, degan qarorga keldi 11.

Milliy hududiy chegaralanish uchun o'z nomi bilan milliy mansublik asos bo'lib xizmat qilishiga qaror qilindi. Bu qaror asrlar davomida milliy asosda bo'linmagan, mushtarak O'rta Osiyo uchun eng katta zarba bo'lib xizmat qildi. Sovetlar tomonidan milliy asosda bo'linishga ko'ra O'rta Osiyo hududidagi Turkiston ASSR, Buxoro va Xorazm respublikalari o'rnida oltita milliy davlat birlashmalari tashkil etildi: O'zbekiston SSR; Turkmaniston SSR; O'zbekiston SSR tarkibida Tojikiston ASSR (1929-yil-gacha); RSFSR tarkibida Qoraqirg'iz (Qirg'iziston) muxtor viloyati; RSFSR tarkibida Qozog'iston ASSR; Qozog'iston ASSR tarkibida 221

Qoraqalpoq muxtor viloyati. Keyinchalik Qoraqalpog'iston ASSR, 1936-yildan O'zSSR tarkibiga kirgan 12.

12 O'zbekiston tarixi : umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun darslik / S.Tilabayev va boshqalar. — Birinchi nashr. — Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2022. - 192 b. 120- b.

Yuqoridagi ma'lumotlar berilgandan keyin, o'quvchi yoshlarni bu mavzuning bugungi kun uchun ahamiyati masalasiga e'tibor qaratish kerak. Bir tomondan milliy asosda yangi davlatchilik asoslarining yaratilishi bugungi dunyoda kechayotgan millatlararo munosabatlar fonida ijobiy holat sifatida qaralishi mumkin. Chunki, milliy davlatlar tashkil topgunga qadar mavjud bo'lgan davlatlarda –Turkiston ASSR, BXSR va XXSRda garchi nisbatan ayrim millat vakillari ko'p sonli bo'lsada, lekin mutloq dominandlikni kasb etmagan. Bu esa vaqtlar o'tishi bilan boshqaruvda milliy nizolarni keltirib chiqarishi tabiiydir. Bunga qo'shni Afg'onistonni misol qilib keltirish mumkin. Davlatlar garchi pushtunlar mutloq ko'pchilikni tashkil etishiga qaramasdan, o'zbeklar va tojiklarning nufusi ham baland hisoblanadi. Bu esa boshqaruvda milliy keskinliklarga bir necha marta sabab bo'lganligiga tarix guvohdir.

Ikkinchidan sovetlar milliy asosda hududiy chegaralanishda atayin milliy nizo kelib chiqadigan darajada ham o'tkazganligini e'tibordan cheta qoldirmaslik kerak. Aynan bu holatni 1947-yilda Buyuk Britaniyaning diniy asosda Hindistonni 2 ga bo'lib yuborishiga tenglashtirish mumkin. U yerda garchi Pokiston islomga e'tiqodchilarga asoslanishi nazarda tutilgan bo'lsada, lekin ko'p sonli boshqa diniy e'tiqod vakillari ham ushbu davlat hududiga o'tkazib yuborildi va aksincha holat Hindiston masalasida ham qilindi.

Uchinchidan, Markaziy Osiyodagi 20-yillarning o'rtalarida boshlangan milliy–hududiy jihatdan millatlarni bir-biridan ajratish keyingi yillardagi ayrim bir hududlar chegaralarini tag'in bir necha marta hech qanday legitim (qonuniy) asoslarsiz o'zgartirilishiga zamin yaratib bergandi. Jumladan, respublikalar chegaralariga uzluksiz aniqlik kiritib borish, ayniqsa, 30-yillarning o'rtalariga qadar ham davom etib keldi. 1927 –1928 yillarda O'zbekiston SSRning tarkibidagi Isfana, Chapko'l, Boksaisfana viloyatlari (hozirgi Laylak tumanining hududi) Qirg'iziston SSRga olib berilsa-da, o'zbek millatiga mansub aholi

ko'pchilikni tashkil qilgan O'sh, Jalolobod shaharlari, Novqat, O'zgan hududlari Qirg'izistonning tarkibida qolib ketavergandi. 222

O'zbekiston –Qirg'iziston chegaralanishining keyingi davrlarida ham juda ko'plab nomuvofiqliklar kelib chiqqan. Xususan, 1930–1955-yillardagi geografik tamoyillarni inobatga olmasdan demarkatsiya ishlarini olib borish natijasida bir davlatning hududi ikkinchisining ichida qolib ketavergan va, bu orqali, anklav/eksklav hududlar muammosi vujudga kelgan hamda So'x, Shohimardon, Jangail (Shimoliy Shoximardon yoki Xalmion), Cho'ng'ara (Shimoliy So'x yoki Qal'acha), Vorux, G'arbiy Qal'acha (Qayrag'och), Sarvak (yoki Sarvan), Barak anklavlari Markaziy Osiyo davlatlar o'rtasidagi chegara muammolarining asosiy markazlaridan biriga aylanib qolgan edi.

1930 yil Qirg'izistonga tegishli Shohimardon qishlog'i O'zbekiston hududining bir qismiga aylanishi bilan kelgusida, albatta, bo'lajak anklav/eksklav muammolarining tamal toshi qo'yildi. 1955 yilda eng yirik submilliy anklav hudud –So'x vujudga keldi. So'xning —kontinental orolga aylanishi uning shimolidagi Cho'ng'ara (Shimoliy Shohimardon)ni ham asosiy davlatdan uzilib, eksklavga aylanib qolishiga sabab bo'lgan. Shohimardonning shimolida tag'in bir o'zbek qishlog'i anklav ko'rinishida Qirg'iziston ichida qolib ketgan va, buning oqibatida, yaqin yillarga qadar bu eksklav –Jangail bir qancha ijtimoiy-iqtisodiy muammolar qurshovida qolib, iqtisodiyoti rivojlanishdan deyarli uzilishga uchradi. Shuningdek, Tojikistonning O'zbekistonda bitta (Sarvak) hamda Qirg'izistonda ikkita (Vorux, G'arbiy Qal'acha) eksklavi mavjud bo'lib, ular orqali asosiy davlat + anklav hudud + o'rab turuvchi davlat munosabatlari bir qancha ziddiyatlarga sabab bo'lgan. Anklav/eksklavlar orasida Qirg'izistonning O'zbekistondagi eksklavi Barak yuzasidan ikkala mamlakat o'rtasida (anklavga harakatlanish, irrigratsiya, savdo-iqtisodiy aloqalar bo'yicha) ayrim kelishmovchiliklar kelib chiqqan. Shu boisdan, 2018 yil O'zbekiston –Qirg'iziston o'rtasida shartnoma imzolaniib, Barak o'rniga Qirg'iziston chegarasida joylashgan teng maydondagi Birlashgan qishlog'iga o'zaro almashlash orqali mavjud anklavga barham berildi. Umuman olinganda, anklav/eksklav hududlar muammosi Sobiq Ittifoq zamonida deyarli siyosiy-iqtisodiy ahamiyat kasb etmagan bo'lsa-da, mustaqillik yillaridagi davlatlararo munosabatlarda —nozik geosiyosiy hududl vazifasini bajarib, ularni doimo siyosiy hushyorlik bilan hamisha nazorat qilib turishni taqozo etmoqda

To'rtinchidan, bugun davlatimiz rahbari Sh.Mirziyoyev tashabbusi bilan O'zbekistonning qo'shni respublikalar bilan chegaralanishi masalasiga uzil-kesil nuqta qo'yilmoqda. Aytish kerakki, bugungi kungacha kelgan ushbu noaniqliklar XX asrning 20-yillarida ot'kazilgan milliy-hududiy chegaralanishning bir oqibati edi. O'zaro muzokaralar yo'li bilan tartibga solinayotgan chegaralar butun mintaqaning barqarorligiga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

6.Жумаханов Ш., Тошпўлатов А. Марказий Осиёда амалга оширилган миллий-худудий чегараланишнинг тарихий-географик таҳлили // Ўтмишга назар. 2020, № 8, 35-50-б.



7. O'zbekiston tarixi: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 10-sinf o'quvchilari uchun darslik / S. Tilabayev va boshqalar. — Birinchi nashr. — Toshkent: Yangiyul Poligraph Service, 2022. - 192 b.